



“O‘ZBEKISTON SANOAT-QURILISH BANKI” AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI
АКЦИОНЕРНЫЙ КОММЕРЧЕСКИЙ БАНК “УЗБЕКСКИЙ ПРОМЫШЛЕННО-СТРОИТЕЛЬНЫЙ БАНК
“UZBEK INDUSTRIAL AND CONSTRUCTION BANK” JOINT-STOCK COMMERCIAL BANK
O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Shahrisabz ko‘chasi, 3-uy, 100000
E-mail: info@sqb.uz, web-site: www.sqb.uz

REGLAMENT

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB

Boshqaruvining

2026-yil _____dagi

_____ - sonli qaroriga

1-ILOVA

“O‘zsanoatqurilishbank” ATBda “Mastercard” va “Uzcard” bank kartalari bo‘yicha “SQB CARD FEST” marketing aksiyasini o‘tkazish REGLAMENTI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Reglament “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tomonidan chiqarilgan “Mastercard” va “Uzcard” bank kartalari egalari, shuningdek Bank tarmoqlarining ofis va servis menejerlari o‘rtasida “SQB CARD FEST” marketing aksiyani o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. Aksiya tashabbuskorlari “MASTERCARD EUROPE” SA va “Yagona umumrespublika protsessing markazi” AJ hisoblanadi.

3. Tashkilotchi: “O‘zsanoatqurilishbank” ATB (keyingi o‘rinlarda – Bank).

4. Aksiya o‘tkaziladigan hudud – O‘zbekiston Respublikasi.

5. Aksiya o‘tkazish muddati: 2026-yilning 21-sentabridan 20-dekabrigacha.

2-bob. Aksiya ishtirokchilari

6. Bank tomonidan chiqarilgan har qanday turdagi amaldagi “Mastercard” va “Uzcard” bank kartalarining egalari bo‘lgan, ushbu Reglament talablariga javob beradigan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi (yashash guvohnomasiga ega) chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxlar aksiyaning mijoz ishtirokchilari bo‘lishlari mumkin.

7. Bank tarmoqlarida mehnat yoki fuqaroviy-huquqiy shartnoma asosida faoliyat yurituvchi ofis va servis menejerlari mazkur aksiyada ishtirokchi sifatida ishtirok etadilar. Bosh bank xodimlari va Bank tarmoqlarining boshqa tarkibiy bo‘linmalarida yoki boshqa lavozimlarida mehnat yoxud fuqaroviy-huquqiy shartnoma asosida faoliyat yurituvchi xodimlar mazkur aksiyada ishtirokchi hisoblanmaydi.

8. Aksiya ishtirok etish aksiya ishtirokchilarining ushbu Reglament talablariga to'liq roziligini anglatadi.

9. Agar aksiya ishtirokchisi ushbu Reglament talablariga rioya qilmasa, u aksiya ishtirok etish va sovrin olish huquqini yo'qotadi.

3-bob. Mijozlarning aksiya ishtirok etish shartlari

10. Aksiya ishtirok etish uchun jismoniy shaxs aksiya boshlangan kundan boshlab yoki aksiya muddati davomida Bank tomonidan emissiya qilingan "Mastercard" yoki "Uzcard" turidagi bank kartasiga ega bo'lishi lozim.

11. Karta egasi aksiya muddati davomida mazkur bank kartasidan foydalangan holda savdo terminallari va internet orqali (POS yoki EPOS) jami 200 AQSh dollari yoki uning 2 400 000 so'mdagi ekvivalentidan kam bo'lmagan miqdorda tranzaksiyalarni amalga oshirishi lozim.

12. G'olibni aniqlashda **2026-yilning 21-sentabridan 20-dekabrigacha** bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasi hududida hamda undan tashqarida savdo terminallari va internet orqali (POS yoki EPOS) amalga oshirilgan va Bank tizimida aks ettirilgan tranzaksiyalar hisobga olinadi. Bunda, Bank kassalari orqali dividend tushumlari hisobidan amalga oshirilgan to'lovlar hamda kreditlarni so'ndirish bilan bog'liq to'lovlar hisobga olinmaydi.

13. Belgilangan 200 AQSh dollari yoki uning 2 400 000 so'mdagi ekvivalentidan kam bo'lmagan miqdorda tranzaksiya hajmi bajarilgandan so'ng, aksiya muddati davomida amalga oshirilgan har bir keyingi tranzaksiya ishtirokchining g'olib bo'lish imkoniyatini oshiruvchi qo'shimcha imkoniyat sifatida hisobga olinadi.

4-bob. Bank xodimlarining aksiya ishtirok etish shartlari

14. Bankning **ofis va servis menejeri** aksiyaning ishtirokchisiga aylanishi bo'yicha talablar:

a) **ofis menejeri** aksiya boshlangan kundan boshlab aksiya muddati davomida mijozlarga Bankning mobil ilovasi orqali "Mastercard" va "Uzcard" bank kartalarini rasmiylashtirish jarayonida o'ziga biriktirilgan shaxsiy referal kodidan foydalanadi. Mazkur referal kod orqali rasmiylashtirilgan bank kartasi bo'yicha aksiya muddati davomida savdo terminallari va internet orqali (POS/EPOS) jami 200 AQSh dollari yoki uning 2 400 000 so'mdagi ekvivalentidan kam bo'lmagan miqdorda tranzaksiyalar amalga oshirilishi lozim;

b) **servis menejeri** aksiya boshlangan kundan boshlab aksiya muddati davomida mijozlarga rasmiylashtirgan "Mastercard" va "Uzcard" bank kartalari bo'yicha savdo terminallari va internet orqali (POS/EPOS) jami 200 AQSh dollari yoki uning 2 400 000 so'mdagi ekvivalentidan kam bo'lmagan miqdorda tranzaksiyalar amalga oshirilishi lozim.

d) **ofis va servis menejeri** aksiya boshlangan kundan boshlab aksiya muddati davomida mijozlarga “SQB Plus” obunasini ulash jarayonida o‘ziga biriktirilgan shaxsiy referal kodidan foydalanadi. Bunda, aksiya doirasida mijozning “SQB Plus” xizmatiga birinchi marta ulanishi hisobga olinadi. Bir mijoz tomonidan “SQB Plus” xizmatiga qayta ulanishi yoki amaldagi obunaning uzaytirilishi ofis menejerining aksiya g‘olibini aniqlash natijalariga qayta kiritilmaydi;

e) mazkur bandning “a” va “b” kichik bandlarida nazarda tutilgan savdo terminallari orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalarni hisoblashda Bank kassalari orqali dividend tushumlari hisobidan amalga oshirilgan to‘lovlar hamda kreditlarni so‘ndirish bilan bog‘liq tranzaksiyalar hisobga olinmaydi.

5-bob. Sovrinlar jamg‘armasi

15. “MASTERCARD EUROPE” SA tomonidan aksiya doirasida 25 dona “iPhone 17 Pro” smartfoni, 10 dona “Alisa” ovozli yordamchisi o‘rnatilgan aqlli karnay hamda 10 dona “Xiaomi Electric Scooter 1S” elektrosamokati sovrin sifatida taqdim etiladi.

16. “Yagona umumrespublika protsessing markazi” AJ tomonidan 8 dona “iPhone 17 Air”, 5 dona “iPhone 17 Pro” hamda 2 dona “iPhone 17 Pro Max” smartfonlari sovrin sifatida taqdim etiladi.

17. Mazkur aksiya bo‘yicha sovrin olish munosabati bilan vujudga keladigan barcha soliqlar va davlat budjetiga majburiy to‘lovlarni to‘lash amaldagi O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

18. G‘oliblar Bankdan biron bir tovarni sovrin summasiga sotib olish orqali sovrinni almashtirishni talab qilishga yoki sovrinning pul ekvivalentini talab qilishga, sovrinni boshqa yuqori yoki past qiymatga almashtirishga, qo‘shimcha to‘lov yoki qiymat farqini qaytarish sharti bilan almashtirishga haqli emas.

19. G‘oliblar sovrinni pul ekvivalentiga yoki boshqa qiymatdagi tovarga almashtirishni talab qilishga haqli emas.

6-bob. Aksiyaning o‘tkazish tartibi va g‘oliblarni rag‘batlantirish mexanizmi

20. Sovrindorlarni aniqlash “O‘zsanoatqurilishbank” ATB mas’ul xodimlari ishtirokida o‘tkaziladi.

21. Aksiya ikki bosqichda o‘tkaziladi hamda ushbu Reglamentning 3 va 4-boblari shartlariga muvofiq operatsiyalarni amalga oshirgan karta egalari aksiya ishtirokchisiga aylanadi. Aksiya g‘oliblarining umumiy soni 60 (oltmish) kishini tashkil etadi.

22. Aksiya bosqichlari:

1-bosqich: 2026-yilning 21-sentabridan 28-oktabrigacha;

Sovrindorlarni aniqlash sanasi: 2026-yil 4-noyabr;

G‘oliblarga sovrinlarni topshirish sanasi: 2026-yil 11-noyabr.

2-bosqich: 2026-yilning 29-oktabridan 20-dekabrigacha;

Sovrindorlarni aniqlash sanasi: 2026-yil 24-dekabr;

Gʻoliblarga sovrinlarni topshirish sanasi: 2026-yil 29-dekabr.

23. Aksiya doirasida oʻynaladigan sovrinlarning turlari, miqdori hamda gʻoliblar oʻrtasida taqsimlanish tartibi mazkur Reglamentning 1-ilovasiga muvofiq belgilanadi.

24. Har bir ofis va servis menejeriga Bank dasturiy taʼminotida individual shaxsiy referal kod biriktiriladi.

25. Menejer mijozga “Mastercard” yoki “Uzcard” bank kartasini rasmiylashtirish va faollashtirish jarayonida oʻzining shaxsiy referal kodidan foydalanadi.

26. Mijozning bank kartasi aynan qaysi menejerning referal kodi orqali rasmiylashtirilgani va faollashtirilgani tizimda qayd etiladi. Shu maʼlumot asosida aksiya yakunida har bir menejer tomonidan jalb qilingan faol kartalar soni aniqlanadi.

27. Aksiya doirasida faqat mijozning tegishli bank kartasiga birinchi marta ega boʻlishi va uni faol foydalanishi hisobga olinadi.

28. Aksiya ishtirokchisiga aylangan ofis va servis menejerlar kesimida aksiya davomida jalb qilingan mijozlar tomonidan savdo terminallari va internet orqali (POS/EPOS) amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi asosida menejerlar reytingi shakllantiriladi. Reytingda yuqori oʻrinlarni egallagan menejerlar mazkur Reglamentning 23-bandida belgilangan miqdorda sovrinlar bilan taqdirlanadi.

29. Ikki yoki undan ortiq menejer bir xil natijaga ega boʻlgan taqdirda, gʻolibni aniqlash uchun ushbu xodimlarning referal kodlari random tizimiga kiritiladi va tasodifiy tanlash orqali gʻolib aniqlanadi.

30. Aksiya gʻoliblarini aniqlash va sovrinlarni taqsimlash aksiya ishtirokchisi toifasidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Bunda:

a) mijozlar orasida gʻoliblar aksiya shartlarini bajargan ishtirokchilar orasidan random tasodifiy sonlar generatori orqali aniqlanadi. Gʻoliblar tomonidan qoʻlga kiritiladigan sovrinlar mazkur Reglamentning 1-ilovasida belgilangan sovrinlar ketma-ketligiga muvofiq aniqlanadi;

b) xodimlar (ofis va servis menejerlari) orasida gʻoliblar aksiya davomida jalb qilingan mijozlar tomonidan savdo terminallari va internet orqali (POS/EPOS) amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi asosida egallagan oʻrinlari asosida aniqlanadi. Bunda reytingda yuqori oʻrinni egallagan xodimga mazkur Reglamentning 1-ilovasida tegishli aksiya bosqichi va xodim toifasi boʻyicha birinchi koʻrsatilgan sovrin, keyingi oʻrinlarni egallagan xodimlarga esa sovrinlar ketma-ketligi boʻyicha navbatdagi sovrinlar taqdim etiladi.

31. Bir aksiya ishtirokchisi (mijoz yoki Bank xodimi) gʻolib sifatida bir marta eʼtirof etiladi va aksiya doirasida faqat bitta sovrinni qoʻlga kiritishi mumkin. Agar bir ishtirokchi bir nechta gʻoliblik mezonlariga mos kelsa yoki bir nechta sovrinni qoʻlga

kiritish imkoniyatiga ega bo'lsa, unga faqat bitta sovrin beriladi, qolgan sovrin tegishli tartibda navbatdagi g'olibga taqdim etiladi.

32. Aksiya ishtirokchisi bo'yicha Bank tomonidan qonunchilik hujjatlari, Bankning ichki hujjatlari hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish, sanksiyalarga rioya etish va Bankning ichki nazorat ro'yxatlari doirasida o'tkaziladigan tekshiruvlar natijasida tegishli cheklovlar, nomuvofiqliklar yoki boshqa xavf omillari aniqlangan taqdirda, mazkur ishtirokchining aksiyada ishtirok etishi, g'olib sifatida e'tirof etilishi va/yoki sovrinni olishi cheklanishi yoki bekor qilinishi mumkin.

7-bob. Aksiyani g'oliblariga sovrinlarni topshirish

33. Mijozlar orasidan g'oliblarni aniqlash Bank mas'ul xodimlari ishtirokida, random tasodifiy sonlar generatori orqali bankning Instagram ijtimoiy tarmog'idagi rasmiy sahifasida jonli efirda amalga oshiriladi.

34. Xodimlar orasidan g'oliblarni aniqlash ushbu Reglamentning 5-bobida belgilangan shartlar asosida amalga oshiriladi.

35. Barcha yo'nalish (mijozlar va xodimlar) bo'yicha g'oliblar ushbu Reglamentning 26 va 33-bandlarida belgilangan tartib asosida aniqlanadi.

36. Tashkilotchi aksiya davomida ishtirokchilarning yozma roziligi asosida ularning nomi (F.I.O.), fotosuratlar va ular haqidagi boshqa materiallardan reklama maqsadlarida, ularga haq to'lamasdan foydalanishi mumkin.

37. Tashkilotchi aksiya o'tkazilish jarayonida mazkur Reglamentga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqiga ega. Kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar ular kuchga kirgan kundan boshlab qo'llaniladi hamda o'zgartirish va qo'shimchalar kuchga kirgunga qadar aksiya ishtirokchilari tomonidan bajarilgan aksiya shartlari, amalga oshirilgan tranzaksiyalar, to'plangan natijalar va g'olib bo'lish uchun orttirilgan imkoniyatlarga nisbatan tatbiq etilmaydi. O'zgartirishlar kuchga kirishidan kamida 3 ish kuni oldin Bankning rasmiy veb-saytida (www.sqb.uz) e'lon qilinadi.

38. G'olib sovrinni olishdan bosh tortishga haqli bo'lib, bu haqda tashkilotchiga 2026-yilning 29-dekabridan kechiktirmay yozma ravishda ma'lum qilishi lozim. Bosh tortilgan taqdirda, navbatdagi g'olib xuddi shu tartibda aniqlanadi.

39. G'oliblarning nomlari amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq ravishda yozma roziligi asosida Bankning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida e'lon qilinishi mumkin.

40. Aksiya g'olibligi to'g'risida xabardor qilingan ishtirokchi bir oy ichida sovrin uchun tashkilotchiga murojaat qilmasa, talab qilinmagan sovrin tashkilotchi tasarrufida qoladi.

8-bob. Javobgar shaxslar va ularning mas'uliyati

41. Xodimlarning javobgarligi bevosita moddiy javobgarlikni emas, balki nazorat va tashkil etish majburiyatlarini o'z ichiga oladi, ularning javobgarlik darajasi ichki hujjatlar va lavozim yo'riqnomalariga muvofiq belgilanadi.

42. Xodimlar ushbu Reglament bo'yicha ish yuritishda korrupsiyaviy harakatlarga yo'l qo'ymasligi, jumladan:

a) har qanday moddiy yoki boshqa ko'rinishdagi yordamni (bevosita yoki bilvosita) berish yoki olish orqali asossiz afzalliklar yaratishga yo'l qo'ymasligi hamda bunday harakatlarni rad etishi;

b) amaldagi qonunchilik, shuningdek uning asosida ishlab chiqilgan Bankning korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan ichki hujjatlari talablariga rioya qilishi;

d) jinoyat yoki huquqbuzarlik alomatlari borligi to'g'risida aniq faktlar yoki dalillar aniqlangan taqdirda, bu haqda o'rnatilgan tartibda huquqni muhofaza qilish organlariga xabar berishi lozim.

43. Xodimlar manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarda O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuni talablariga qat'iy rioya qilishlari shart.

9-bob. Yakuniy qoidalar

44. Aksiya ishtirok etish barcha ishtirokchilar tomonidan ushbu shartlarga rozilik bildirilganini anglatadi. Ushbu Reglament talablari barcha ishtirokchilar uchun yakuniy va qat'iyydir.

45. Aksiyaning potensial ishtirokchilarini uning muddati va shartlari to'g'risida xabardor qilish Bankning rasmiy veb-saytida (www.sqb.uz) sayti orqali amalga oshiriladi.

46. Aksiya muddatidan oldin tugatilishi mumkin bo'lgan taqdirda, bu haqda ma'lumot Bankning rasmiy veb-saytida (www.sqb.uz) joylashtiriladi.

47. Tashkilotchi ishtirokchining aksiyada ishtirok etishi munosabati bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlar, to'lovlar va boshqa xarajatlarni qoplamaydi.

48. Ushbu aksiyani o'tkazishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizolar tomonlar o'rtasida muzokaralar yo'li bilan, kelishuvga erishilmagan taqdirda esa O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq hal qilinadi.

Biznes Bosh direktori
v.b:



T.Norov

<https://hujjat.sqb.uz/?pin=kG58aE74&id=4b297567-4bcc-4601-9775-2d9701711ffb>